Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

TAHDIDNING DISKURSIV-PRAGMATIK MAZMUNI

Sobirova Nasiba Erkinjonovna
Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti
Tayanch doktoranti
fe.nasiba.s@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22090929
+998915321721

Annotatsiya

Mazkur maqolada tahdid nutqiy aktining kommunikativ-pragmatik va lingvistik xususiyatlari nutq aktlari nazariyasi doirasida tahlil qilinadi. Tahdid J. Searl tasnifiga ko‘ra komissiv, direktiv hamda ayrim holatlarda ekspressiv nutqiy aktlar bilan bog‘liq holda yoritiladi. Tadqiqotda tahdidning bevosita va bilvosita, eksplisit va implitsit ifodalanish shakllari hamda ularning illokutiv xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tahdidning nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad, diskurs, adresant va adresatning psixoemotsional holati bilan bog‘liqligi asoslab beriladi. Tahdidni ifodalashning asosiy struktur-semantik modellari hamda uning pragmatik ta’sir mexanizmlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: tahdid nutqiy akti, nutq akti, pragmatika, komissiv, direktiv, ekspressiv, eksplisit, implitsit, bevosita nutqiy akt, bilvosita nutqiy akt, illokutiv kuch, diskurs, kommunikativ vaziyat, adresant, adresat.

J.Searl tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari tasnifiga tayangan holda, tahdidni kommissivlarga, ya’ni so‘zlovchiga biror harakatni amalga oshirish mas’uliyatini yuklovchi aktlarga va direktivlarga, ya’ni tinglovchi tomonidan biror harakatni sodir etishni talab qiluvchi aktlar jumlasiga mazmunidan tahdidni amalga oshirishdagi nutq vositalaridagi ohang bilan bog‘liq ekspressivlarga kiritish mumkin.

Tahdidning kommunikativ-pragmatik mazmuni dixotomiyasi yashirin buyruq tarzidagi noaniq ko‘rsatma (implitsit preskriptiya) va o‘zgaruvchan model shaklidagi ochiq buyruq (eksplitsit preskriptiya) kabilarni o‘z ichiga oladi. Bunda tahdid nutq aktlaridagi buyruqlarning eksplitsit va implitsit tarzda ifodalanishini aniqroq tushunish uchun bevosita va bilvosita nutq aktlari tushunchalarini lingvomadaniy jihatlarini ochib berishga harakat qiladi.

Rus tilshunosligida nutqiy aktlarning uslubiy jihatlari V.V.Dementyev, K.A.Dolinin, M.N.Kojina, O.B.Sirotinina, T.V.Shmeleva kabilar tomonidan tadqiq etilgan. Ular nutqiy aktni nutqiy tuzilma sifatida talqin qilishadi. Chunki nutqiy aktlardagi bevosita va bilvosita ifodalarning shakllanishi, nutqda faollashuvi kommunikativ vaziyatga bog‘liq ekanligini aniqlashadi. Bunda tilshunoslar nutqiy aktlarning diskursiv mosligi, matnda ifodalanishning kommunikativ vazifaviy jihatlariga e’tibor berishadi. Xususan, V.V.Dementyev matn hosil bo‘lishining “gorizontal” va “vertikal” modellarini ajratadi. Olimning fikricha, gorizontal modellar “pragmatik fokus”ga ega bo‘lib, asosan tema–rema tipidagi matnlarni yuzaga keltirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, vertikal modellar konseptual jihatdan nutqiy janr (freym) tushunchasiga yaqin turadi. Bundan tashqari, ular nutqiy janr va nutqiy akt tushunchalarini farqlashga e’tibor qaratadi.

Har qanday nutq aktlari singari tahdid nutqiy akti ham nutqiy faoliyatning bir turi hisoblanadi.

T.M.Nikolayeva nutq faoliyatini nutq kategoriyasi sifatida ma’lum turlarga ajratadi:

1) nutq steriotipi: kontekst tarkibiga kiruvchi akt erkin komponent sifatida so‘zlovchining nutq jarayonida boshqa shaxs nutqidan foydalanish;

2) kommunikativli steriotip: ma’lum bir vaziyatda bir xil iboralarni qo‘llash, shuningdek, muloqot jarayonida ishlatiladigan iboralarning etiket shakllari, hamda individual kommunikativ steriotiplar;

3) mental steriotip: fikrlashga qaratilganlik va ongda aks etadigan biror fakt, voqea-hodisa, ma'lumotga nisbatan salbiy qarashlarni ifodalaydigan kategorizatsiya.

Ta'kidlanganidek, nutq jarayoni muloqotdoshlar o'rtasida kommunikativ munosabat sifatida dialog, monolog, narrativ shakllarda biror axborotlarni ifodalashni nazarda tutadi. Nutq jarayonida turli aktlarni faollashtiruvchi nutq hodisalari yuzaga keladi. Nutq hodisalari muloqot vaziyatga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatlarni hosil qiladi. Ushbu munosabatlar so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida kechadigan muloqot kechimida namoyon bo'ladi. Nutq hodisalari muloqotdoshlarning nutq kechimi, muloqot mavzusi, nutq vaziyatga nisbatan munosabatlarining psixo-emotsional kechimiga ham bog'liq. E.V.Paducheva nutq hodisalarini muloqot kechimidagi psixologik va emotsional vaziyatda ishlatiladigan iboralar replikalar yordamida ifodalanishi muloqot ishtirokchilarining psixologik holati bir-biriga qaratilganligi sabab ularda reaksiya va stimulni yuzaga kelishi bilan bog'liq deb ta'kidlaydi.

Jumladan, M.N.Kojinaning ta'kidlashicha, nutqiy janr nazariyasi bilan nutqiy akt nazariyasi o'rtasidagi farq tadqiqot yondashuvida ham namoyon bo'ladi. Xususan, nutqiy janrlarda ijtimoiy-diskursiv yondashuv ustuvor bo'lsa, nutqiy aktlarni ifodalanishida psixologik yondashuv yetakchi hisoblanadi. Olimaning fikriga ko'ra, "nutqiy janr" tushunchasi til nazariyasining nutqiy faoliyatga oid jihatini asosiy o'ringa olib chiqadi va til tizimi doirasidan tashqari uning real kommunikativ amaliyotda qo'llanishini aks ettiradi. Shu bilan birga, nutqiy akt faoliyat sifatida talqin qilinishi sababli ifodalanadigan, performativlarning, shuningdek, til vositasida harakatlarni (jumladan, mental harakatlarni) ifodalash hamda so'zlovchining ahamiyati muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, nutqiy janr va nutqiy aktlar foydalanadigan lisoniy vositalar, munojot ishtirokchilarining harakatlari, kommunikativ maqsad, nutq vositasi, adresat va adresantning psixoemotsional holatiga ham bog'liq.

Tahdid nutqiy akti aksariyat vazifalarda eksplisit tarzda namoyon bo'ladi. Bu o'z navbatida ma'lum intensiyaga asoslanadi. Eksplisit tarzda ifodalangan intensiyaga ega nutqiy akt so'zlovchi tomonidan so'zma-so'z ifodalangan akt nazarda tutiladi. Bu nutq aktlari nazariyasida to'g'ridan to'g'ri (bevosita) nutqiy akt deb ataladi. Agar so'zlovchi nutqiy ifodaning bevosita mazmunidan tashqari qo'shimcha kommunikativ maqsadni ham nazarda tutsa, bunday nutqiy akt bilvosita (yashirin) nutqiy akt sifatida tavsiflanadi. Tahdid nutqiy akti esa bevosita yoki bilvosita shaklda voqelanib, so'zlovchining ikkinchi yoxud uchinchi shaxsga qaratilgan agressiv niyati va salbiy ta'sir ko'rsatish maqsadini ifodalovchi lisoniy vositalarni qamrab oladi.

Shunday qilib, nutqiy aktlarni bevosita va bilvosita turlarga ajratish ularning illokutiv kuch darajasining ochiq ifodalangan yoki yashirinligiga qarab belgilanadi. To'g'ridan to'g'ri nutqiy aktlarning illokutiv xususiyatini ifodalovchi vositalar bu performativ tarzda 1-shaxs olmoshi + fe'lning 1-shaxs, birlik sondagi hozirgi zamon, indikativ shakli orqali amalga oshiriladi. Bevosita nutqiy aktdagi illokutiv funksiya bilan uni nomlaydigan performativ fe'l o'rtasidagi aniq muvofiqlikni ko'rsatadi.

Nutqiy akt ifodasining yashirin (implitsit) mazmuni odatda uni ifodalovchi maxsus vositalarga ega bo'lmaydi va u aktning umumiy mazmuni, nutq vaziyati yoki muloqot ishtirokchilarining umumiy bilimlari asosida anglab olinadi.

Tahdid nutq aktining o'ziga xosligi sifatida uning nutqiy aktidagi maqsadni bevosita "tahdid qilmoq" fe'li orqali ifodalab bo'lmaydi. Z.Vendler ta'kidlashicha, ushbu fe'l o'z semantikasida "barbod qiluvchi omil"ni mujassam etgan kvaziperformativ fe'l hisoblanadi. Shu sababli tahdid nutq aktini ifodalashning eng odatiy modellari quyidagilardan tiplar qilish mumkin:

a) eksplisit tarzda ifodalangan talab + (agar) aks holda + ochiq yoki yashirin tarzda ifodalangan jazolovchi harakat;

agar + yashirin tarzda ifodalangan talab (unda) + salbiy oqibatlar va'dasi yuzaga keladi;

yana (bir marta) + ochiq yoki yashirin tarzda ifodalangan talab (va) + salbiy oqibatlar va'dasi (Vendler).

Tahdidni yuzaga keltiruvchi nutqiy aktni amalga oshirish uchun shunga mos vaziyatni yuzaga kelishi bilan bog'liq. Bunday turdagi aktning qo'llanilishi ma'lum bir muloqot vaziyatining

keskinlashishiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sabab tahdidning pragmatik xususiyatlarini tasvirlash uchun vaziyatni diskursiv tahlil bilan birgalikda olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayniqsa, diskursning pragmatik tarkibi doirasida keskin vaziyatni qismlarini o‘rganilishi, muloqot ishtirokchilari va ularning oldingi xatti-harakatlari kabi parametrlarni ham o‘rganishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Серль Дж.Р. Что такое речевой акт // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: 1986. Вып. 17. – С. 195.
2. Долинин К.А. Имплицитное содержание высказывания // Вопросы языкознания. – 1983. – № 6. – С. 40.
3. Вежбицка А. Речевые жанры / пер. В.В. Дементьева // Жанры речи: сб. науч. тр. – Саратов: Изд-во ГосУНЦ «Колледж», 1997. – Вып. 1. – С. 99–112.
4. Ларина Т. В. Категория вежливости и стиль коммуникации: сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций. – М.: Языки славянских культур, 2009. – С. 228.
5. Быстров В.В. Функционально-семантический анализ менасивных диалогических реплик: дис. … канд. филол. наук: 10.02.19. – Тверь, 2001. – С. 17.